

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
mart



**TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN
POLITEXNIKA UNIVERSITETI**

*Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya
materiallari to'plami*

**“GLOBAL RAQAMLI INTEGRATSIYALASHUV:
2030-YILGACHA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA
TEXNOLOGIK VA INDUSTRIAL SANOATNI RIVOJLANTIRISH
ORQALI MIKRO VA MAKROIQTISODIY BARQAROR
O'SISHNI TA'MINLASH DOLZARBLIGI”**

**“GLOBAL DIGITAL INTEGRATION: THE RELEVANCE OF
ENSURING MICRO AND MACROECONOMIC SUSTAINABLE
GROWTH THROUGH TECHNOLOGICAL AND INDUSTRIAL
DEVELOPMENT IN THE TRANSITION TO A GREEN
ECONOMY BY 2030”**

**«ГЛОБАЛЬНАЯ ЦИФРОВАЯ ИНТЕГРАЦИЯ:
АКТУАЛЬНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО
МИКРО- И МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ЧЕРЕЗ
РАЗВИТИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ И ИНДУСТРИАЛЬНОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ
ЭКОНОМИКЕ К 2030 ГОДУ»**

3-MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr.
2026-yil, mart.*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ixamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ICT WEEK UZBEKISTAN 2025: MILLIY TEXNOLOGIYALAR HAFTALIGINING YAKUNLARI VA ULARNING O'ZBEKISTON IT-EKOTIZIMIGA TA'SIRI	16
Jumaboyev Akmaljon Sheraliyevich	
THE ROLE OF STATE FINANCIAL CONTROL IN THE EFFICIENT USE OF BUDGET FUNDS	20
Gulyor Akhmatovna Kasimova, Biybinaz Makhmut qizi Esenbaeva	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПЛАТЁЖНЫХ СИСТЕМ В ФОРМИРОВАНИИ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	22
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
UZBEKISTAN'S STRATEGY FOR TRANSITION TO A GREEN ECONOMY: LABOR MARKET TRANSFORMATION, CHALLENGES AND PROSPECTIVE OPPORTUNITIES.....	27
Akbarova Barno Shukhratovna, Chintemirova Diyora Shukhratovna	
MODELS FOR MANAGING EDUCATIONAL REFORMS IN THE CONTEXT OF CULTURAL DIFFERENCES.....	32
Abdulmajeed Nabeel Azouz	
4-SANOAT INQILOBINING RAQAMLI TURIZMGA TA'SIRINI BAHOLASH	38
Sevinchova Nilufar Ne'mat qizi	
КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ ПРОМЫШЛЕННОГО ПРЕДПРИЯТИЯ КАК ДРАЙВЕР ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ.....	41
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA FOIZSIZ MOLIYA MEKANIZMLARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	44
Adilov Zuxriddin Marip o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INI RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	47
Tadjimirzayev Anvar Abduvaxidovich	
RAQAMLI IQTISODIY DINAMIKANI KOMPLEKS FUNKSIYALAR YORDAMIDA MODELLASHTIRISH.....	52
Ibrohimova Nilufar Qahramon qizi	
SANOAT SEKTORIDA BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" INVESTITSİYALARINING IQTISODIY AHAMIYATI.....	55
Ibragimov Zaxid Taxirovich	
LOGISTIKA PROVAYDERLARI XIZMATLARIDAN FOYDALANISH ASOSIDA TEMIR YO'L TRANSPORTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH.....	59
Raximov Xasan Shukurjonovich	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ИНСТРУМЕНТОВ УПРАВЛЕНИЯ ПРОЕКТАМИ В РАЗЛИЧНЫХ ОТРАСЛЯХ ЭКОНОМИКИ	64
Сидиков Зиёдулло Равшанович, Холиярова Шохиста Кахрамоновна	
SUG'URTA TASHKILOTLARINING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI AHAMIYATI	68
Azamatova G.I.	
DON MAHSULOTLARINI YETISHTIRISH VA QAYTA ISHLASHDA INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	71
Po'latova Sug'diyona, S.Y.Xamidova	
MAHALLIY BUDJETLARNING DAROMAD BAZASINI KENGAYTIRISH ASOSIDA XARAJATLAR BARQARORLIGINI TA'MINLASH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA).....	74
Safarmurodova Marjona To'raqulovna	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARI VA PREFERENSIYALARINING IQTISODIY AHAMIYATI.....	77
Allaberganova Kumush Javlonbek qizi, Beknazarova N.T.	



DAVLAT SEKTORIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI	80
Abdullayev Bobirjon Mamurjanovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MOLIVASI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI.....	84
Berdibekov Adhamjon Ilhomjon o'g'li	
MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	87
Ashirov Jasur Dilshod o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA MOLIVAVIY INKLYUZIYANI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	90
Lazizbek Ravshanov Baxtiyor o'g'li	
NOMODDIY AKTIVLAR AUDITIDA RISKLARNI BAHOLASH VA AUDITORLIK DALILLARINI TO'PLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	93
Ishanqulov Izzatilla Nurillayevich	



NOMODDIY AKTIVLAR AUDITIDA RISKLARNI BAHOLASH VA AUDITORLIK DALILLARINI TO'PLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Ishanqulov Izzatilla Nurillayevich

Mustaqil tadqiqotchi, PhD

Annotatsiya. Tezida nomoddiy aktivlar auditida risklarni baholash va auditorlik dalillarini to'plashning uslubiy jihatlari tadqiq qilingan. Auditorlik riski, muhim buzib ko'rsatish riski (ajralmas risk, nazorat vositalari riski) va aniqlanmaslik riski o'rtasidagi bog'liqlik asoslangan. Auditorlik dalillarini to'plash bo'yicha yettita tartib-taomil (tekshirish, kuzatuv, tashqi tasdiqnoma, qayta hisoblash, qayta amalga oshirish, tahliliy tartib-taomillar, rasmiy so'rov) tavsiflangan.

Kalit so'zlar: auditorlik riski, muhim buzib ko'rsatish, ajralmas risk, nazorat vositalari riski, aniqlanmaslik riski, auditorlik dalili, tasdiqlanishi lozim bo'lgan fikrlar, BHXS-38, BHXS-500, audit taomillari.

Abstract. The thesis investigates the methodological aspects of assessing risks and collecting audit evidence in the audit of intangible assets. The relationship between audit risk, the risk of material misstatement (inherent risk, control risk) and detection risk is substantiated. Seven procedures for collecting audit evidence (inspection, observation, external confirmation, recalculation, re-performance, analytical procedures, formal inquiry) are described.

Keywords: audit risk, material misstatement, inherent risk, control risk, detection risk, audit evidence, assertions, IAS 38, ISA 500, audit procedures.

Аннотация. В тезисе исследованы методические аспекты оценки рисков и сбора аудиторских доказательств при аудите нематериальных активов. Обоснована взаимосвязь между аудиторским риском, риском существенного искажения (неотъемлемый риск, риск средств контроля) и риском необнаружения. Описаны семь процедур сбора аудиторских доказательств (инспектирование, наблюдение, внешнее подтверждение, пересчет, повторное проведение, аналитические процедуры, формальный запрос).

Ключевые слова: аудиторский риск, существенное искажение, неотъемлемый риск, риск средств контроля, риск необнаружения, аудиторское доказательство, утверждения, МСФО (IAS) 38, МСА 500, аудиторские процедуры.

Moliyaviy hisobotlarning ishonchlilik darajasini oshirishda auditorlik faoliyati muhim o'rin tutadi. Xususan, nomoddiy aktivlar kabi moddiy-ashyoviy shaklga ega bo'lmagan aktivlarning auditi o'ziga xos murakkablikka ega bo'lib, yuqori darajadagi kasbiy mahorat va batafsil uslubiy yondashuvni talab etadi. Mazkur holat hozirgi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasida nomoddiy aktivlarning sezilarli o'zgarishlarga uchrashi bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946-sonli¹ hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 171-sonli² qarori asosida mamlakatimizda audit sifatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar olib borilmoqda. Ushbu islohotlarning ajralmas qismi sifatida nomoddiy aktivlar auditida zamonaviy uslubiyotlarni joriy etish zarurati tug'iladi.

Auditorlik riski — moliyaviy hisobotlarda mavjud bo'lgan xatoliklarni auditor tomonidan ma'lum omillar ta'sirida aniqlay olmasligi va mazkur xatoliklar mavjudligini bilgan holda mos bo'lmagan xulosani berishi natijasida yuzaga keladigan xatardir. Xalqaro audit va kafolat standartlari kengashining atamalar lug'atiga

1 <https://lex.uz/uz/docs/-3914502>

2 <https://lex.uz/uz/docs/-5952173>



ko'ra, auditorlik riski "moliyaviy hisobotda jiddiy noto'g'ri ko'rsatilganda auditor noto'g'ri auditorlik fikrini bildirish xavfi" sifatida ta'riflanadi³. Bu ta'rif audit sifatini belgilovchi asosiy tushunchadir.

Auditorlik riski uchta tarkibiy komponentga bo'linadi:

Ajralmas risk — moliyaviy hisobot bilan bog'liq operatsiyalar guruhi, schyotlarning aylanmalari va qoldiqlari to'g'risidagi axborotlarning nazorat vositalari tekshirishidan oldin buzib ko'rsatishga moyilligi riski. Bu riskni yuzaga keltiruvchi omillar: operatsiyalarning murakkabligi, subyektivlik, o'zgarishlar, noaniqliklar, menejmentning belgilangan maqsadlarga erishishga intilishi.

Nazorat vositalari riski — nazorat vositalari moliyaviy hisobot bilan bog'liq axborotlarning muhim darajada buzib ko'rsatilishini oldini ola olmasligi yoki o'z vaqtida aniqlab, bartaraf eta olmasligi riski.

Aniqlanmaslik riski — auditor tomonidan auditorlik riskini maqbul darajagacha pasaytirish uchun o'tkazilgan protseduralar moliyaviy hisobot bilan bog'liq axborotda mavjud bo'lgan muhim buzib ko'rsatishlarni aniqlay olmasligi riski. Bu risk ikkiga bo'linadi: tanlash bilan bog'liq va tanlash bilan bog'liq bo'lmagan.

Yuqoridagi uch xil risk o'rtasidagi funksional bog'liqlik quyidagicha ifodalanishi mumkin:

Auditorlik riski = Ajralmas risk × Nazorat vositalari riski × Aniqlanmaslik riski

Mazkur formula shuni ko'rsatadiki, agar ajralmas risk va nazorat vositalari riski yuqori bo'lsa, auditor aniqlanmaslik riskini kamaytirish uchun ko'proq auditorlik protseduralarini o'tkazishi lozim. Aksincha, agar ajralmas va nazorat vositalari riski past bo'lsa, auditor aniqlanmaslik riskiga nisbatan yumshoqroq yondashishi mumkin.

Xususan, AKT sohasida nomoddiy aktivlar auditida ajralmas risk quyidagi omillar tufayli yuqori bo'ladi: dasturiy mahsulotlar yaratish jarayonlarining o'ziga xos murakkabligi; intellektual mulk obyektlarini baholashda subyektivlik; raqamli texnologiyalarning tez o'zgarishlari; kutish, kafolat majburiyatlari kabi noaniqliklar.

500-sonli "Auditorlik dalillari" nomli xalqaro standartga muvofiq, auditorlik dalillari — auditor tomonidan to'plangan ma'lumotlar bo'lib, ular asosida auditor auditorlik xulosasini shakllantiradi⁴. Standart auditor tomonidan to'plangan dalillarning ishonchligi va yetariligidan alohida e'tibor qaratish zarurligini belgilaydi.

Auditorlik dalillarining ishonchligini anglatuvchi mezonlar:

- tashqi mustaqil manbalardan olingan dalillar ishonchi yuqori dalillar toifasiga kiradi;
- auditor bevosita ishtiroki asosida to'plangan dalillar bilvosita to'plangan dalillardan ishonchliroq hisoblanadi;
- mijoz tomonidan taqdim etilgan dalillar (ishonchligi eng past manba) mijozning ichki nazorat tizimi qay tartibda ishlashiga bog'liq bo'ladi;
- yozma dalillar og'zaki olingan dalillarga nisbatan ishonchli hisoblanadi.

500-sonli xalqaro standartda auditorlik dalillarini to'plash bo'yicha yettita asosiy tartib-taomil belgilangan:

Tekshiruv — buxgalteriya hisobi yozuvlarini (qog'oz yoki elektron shaklda) yoxud aktivning jismoniy tekshiruvini amalga oshirish. Ichki hujjatlar va tashqi hujjatlarga ajratilgan holda ularni ishlab chiqarish ustidan nazoratning qay tartibda ishlashiga qarab ishonchli dalillarga ajratish muhim hisoblanadi.

Kuzatuv — boshqalar tomonidan bajariladigan jarayonlarni yoki tartib-taomillarni auditor tomonidan kuzatish. Masalan, tekshiruv obyekti xodimlari tomonidan tovar-moddiy zaxiralarni sanash jarayonini kuzatish.

Tashqi tasdiqnoma — tashqi ishonchli manbalardan (kontragentlar, banklar, davlat idoralari) qog'oz yoki elektron shaklda voqea-hodisalarni tasdiqlab, bevosita auditorga to'g'ridan to'g'ri yo'llangan yozma bildirmalar.

Qayta hisoblash — hujjatlardagi yoki yozuvlardagi hisob-kitoblarning matematik aniqligini tekshirish maqsadida qayta hisoblash. Bu protseduralar qo'lda yoki elektron tarzda amalga oshirilishi mumkin.

Qayta amalga oshirish — tekshiruv obyekti tomonidan ichki nazoratning bir bo'lagi tarzida amalga oshirilgan tartib-taomillar yoki nazorat vositalarini auditor tomonidan mustaqil ravishda qayta amalga oshirib ko'rish.

Tahliliy tartib-taomillar — moliyaviy hamda nomoliyaviy axborotlar o'rtasidagi aloqadorliklarni tahlil qilish orqali moliyaviy ma'lumotlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini baholash. Bu protseduralar nisbatan kam vaqt talab qiladi va dastlabki risk baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rasmiy so'rov — mijoz tashkilot ichida yoki undan tashqarida bo'lgan ma'lumotga ega shaxslardan moliyaviy hamda nomoliyaviy ma'lumotlarni so'rash orqali dalillarga ega bo'lish. So'rovlar rasmiy yozma yoki norasmiy og'zaki shaklda bo'lishi mumkin.

Auditorlik dalillarini to'plashda tasdiqlanishi lozim bo'lgan fikrlar ikki turga bo'linadi:

Voqea-hodisalarga nisbatan tasdiqlanishi lozim bo'lgan fikrlar: sodir bo'lganlik, to'liqlik, aniqlik, hisobot davriga tegishlilik, tasnif, taqdim etilish.

Balans moddalari bo'yicha tasdiqlanishi lozim bo'lgan fikrlar: mavjudligi, huquq va majburiyatlar, to'liqlik, aniqlik, baholanishi, taqsimlanishi, tasnif, taqdim etilish.

3 Xalqaro audit va kafolat standartlari kengashi qo'llanma. Atamalar lug'ati, 2009-yil.

4 500-sonli auditning xalqaro standartlari "Audit dalillari".



AKT sohasida nomoddiy aktivlar bo'yicha tasdiqlanishi lozim bo'lgan fikrlarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Xususan, mavjudligi — nomoddiy aktivning haqiqatdan korxonaga tegishliligi; huquq va majburiyatlar — patent, litsenziya kabi hujjatlar bilan tasdiqlanishi; baholanishi — BHXS-38 talablari doirasida amalga oshirilishi; tasnif — nomoddiy aktivlarni asosiy vositalardan, investitsiyalardan, davr xarajatlaridan ajratilishi; taqdim etilish — moliyaviy hisobotlar izohida tegishli axborotning to'liq yoritilishi.

Nomoddiy aktivlarning qadrsizlanishini baholash BHXS-36 "Aktivlarning qadrsizlanishi" standarti talablari asosida amalga oshiriladi. Auditor mazkur jarayonda quyidagi jihatlarni tekshirishi talab etiladi: qadrsizlanish belgilari (daromad manbalari kamayishi, texnologik eskirishi, bozor qiymatining pasayishi); qaytariladigan qiymat (recoverable amount)ni hisoblash uslubi (bekor qilish qiymati va sotish xarajatlari chegirilgan haqiqiy qiymati) diskont stavkasini qo'yish va pulning vaqt qiymatini hisobga olish. Bu jarayonning ishonchliligi auditor xulosasining asosiy shartlaridan biridir.

Amortizatsiya jarayoni tekshirilayotganda quyidagi holatlar tahlil qilinadi:

— nomoddiy aktivlarning foydali xizmat muddati to'g'ri belgilangan-belgilanmagani;

— amortizatsiya hisoblashning tanlangan usuli (to'g'ri chiziqli, kumulyativ, kamayuvchi, tezlashtirilgan) korxona hisob siyosatiga mos-nomos kelishi;

— amortizatsiya hisoblashning boshlanish va tugatish sanalari to'g'ri belgilanganligi;

— amortizatsiya summasining buxgalteriya schyotlarida to'g'ri aks ettirilganligi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi:

Birinchidan, nomoddiy aktivlar auditida auditorlik riskining uchta tarkibiy komponenti (ajralmas risk, nazorat vositalari riski, aniqlanmaslik riski) o'rtasidagi funksional bog'liqlikni hisobga olgan holda auditorlik protseduralarini rejalashtirish zarur.

Ikkinchidan, AKT sohasida nomoddiy aktivlar bo'yicha ajralmas risk yuqori bo'lganligi (murakkablik, subyektivlik, o'zgarishlar) sababli mazkur soha korxonalarida qo'shimcha auditorlik protseduralarini o'tkazish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, auditorlik dalillarini to'plashda 500-sonli Auditning xalqaro standarti belgilangan yettita tartib-taomilni (tekshiruv, kuzatuv, tashqi tasdiqnoma, qayta hisoblash, qayta amalga oshirish, tahliliy tartib-taomillar, rasmiy so'rov) kompleks tarzda qo'llash muhim ahamiyatga ega.

To'rtinchidan, tasdiqlanishi lozim bo'lgan fikrlar tizimini (voqea-hodisalar bo'yicha 6 ta fikr va balans moddalarini bo'yicha 8 ta fikr) AKT sohasining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tatbiq etish orqali audit sifati oshiriladi.

Beshinchidan, "O'zbekiston pochta" AJ misolida amalga oshirilgan trend tahlili shuni ko'rsatdiki, nomoddiy aktivlardagi keskin o'zgarishlar (2023-yildagi 240 baravar o'sish) auditor uchun jiddiy risk belgisi bo'lib, qo'shimcha tartib-taomillarni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aceski, B. and Traykoski, B. (2004) Ички ва ташқи аудит. (макед. тил.). Прилеп: Иқтисодиёт факультети.
2. Аренс, Э.А. ва Лоббек, Ж.К. (2001) Аудит. Москва: Финансы и статистика.
3. Asare, S.K. and Wright, A.M. (2012) "Investors', Auditors', and Lenders' Understanding of the Message Conveyed by the Standard Audit Report on the Financial Statements", Accounting Horizons, 26(2), pp. 193–217.
4. Bartov, E., Givoly, D. and Hayn, C. (2002) "The rewards to meeting or beating earnings expectations", Journal of Accounting and Economics, 33(2), pp. 173–204.
5. Coate, C.J., Florence, R.E. and Kral, K.L. (2002) "Financial Statement Audits, a Game of Chicken?", Journal of Business Ethics, 41(1), pp. 1–11.
6. DeFond, M. and Zhang, J. (2014) "A review of archival auditing research", Journal of Accounting and Economics, 58(2–3), pp. 275–326.
7. Дўсмуратов, Р.Д. (2007) Аудиторлик фаолияти: назария, услубиёт ва амалиёт. Тошкент: Молия нашриёти.
8. Holthausen, R.W. and Watts, R.L. (2001) "The relevance of the value-relevance literature for financial accounting standard setting", Journal of Accounting and Economics, 31(1–3), pp. 3–75.
9. Houghton, K.A., Jubb, C. and Kend, M. (2011) "Materiality in the context of audit: the real expectations gap", Managerial Auditing Journal, 26(6), pp. 482–500.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100